



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar oyi

RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 270,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 22,3 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 202,0 ming so'mga yetdi.

Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2019 yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 270,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,4 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (32,7 %), moliyaviy xizmatlar (22,3 %), transport xizmatlari (17,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,5 %) tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida xizmatlar tarkibi,%




2019 yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 270,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,4 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	270,4	116,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	14,9	94,5
moliyaviy xizmatlar	60,2	218,1
transport xizmatlari	47,4	101,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	45,4	101,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	8,1	104,9
savdo xizmatlari	88,4	100,9
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	7,6	100,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	7,2	101,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	3,6	119,0
ijara xizmatlari	7,1	116,8
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	7,9	104,0
shaxsiy xizmatlar	8,5	100,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2,9	128,0
boshqa xizmatlar	6,6	100,6

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (88,4,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (60,2 mlrd. so'm), transport xizmatlari (47,4 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,9 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlar (8,5 mlrd. so'm) oshishi kuzatilmoqda.


2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (2,9 mlrd. so'm) qayd etildi.


Joriy yilning yanvar oyida ko'rsatilgan xizmat hajmida eng katta ulushi savdo xizmati (32,7 %), Moliyaviy xizmatlar (22,3 %), transport xizmatlari (17,5 %) Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,5 %) ni tashkil qilgan bo'lsa, eng kam ulushi Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,3 %), boshqa xizmatlar (2,5 %), ijara xizmatlari (2,6 %) tashkil qildi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulusi (foizda)



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (218,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (128,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (119,0 %), ijara xizmatlari (116,8 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (104,9 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (94,5 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,1 %), shaxsiy xizmatlar (100,9 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning hajmi 60,2 mlrd. so'mni tashkil etib o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 218,1 foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (94,4 %) etakchilik qilmoqda.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta bo'yicha xizmatlar (4,0 %) va yordamchi moliya faoliyati bo'yicha xizmatlar (1,6 %) ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda viloyatda ulgurji va birja savdo korxonalari faoliyati uchun zarur qonunchilik asoslari yaratilgan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmog'i faol rivojlanmoqda. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 88,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,7 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 88,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 7,2 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,8 % ni tashkil qiladi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 8,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish 104,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,0 % ga yetdi.

2019 yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,2 % ga to'g'ri keladi.